



## AMIR TEMUR FARZANLARI VA ULARNING TARBIYASI HAQIDA

Azamjanova Ziyodaxon Azamjon qizi

AndDU, Tarix fakulteti 3-bosqich talabasi

Telefon raqami: +998950754101

Abdullayev Bahromjon Hoshimjonovich

AndDU, Jahon tarixi kafedrasida katta o'qituvchisi

Telefon raqami: +998936304030

<https://doi.org/10.5281/zenodo.16559192>

### ARTICLE INFO

Received: 21<sup>st</sup> July 2025

Accepted: 25<sup>th</sup> July 2025

Published: 29<sup>th</sup> July 2025

### KEYWORDS

Amir Temur,  
Temuriylar, Muhammad  
Tarag'ay, Takina Xotun,  
Chig'atoy ulusi, Movarounnahr,  
Eron va Xuroson yurishlari,  
Oltin O'rda yurishlari.

### ABSTRACT

*Ushbu maqolada Amir Temur farzandlari va ularning tarbiyasi haqida fikr yuritilgan bo'lib, unda sharqona va islom an'analariga amal qilinganligi manbalar asosida yoritib berishga harakat qilingan.*

Jahonga mashhur sarkarda Amir Temur 1336-yil 9-aprelda Kesh viloyatida Xo'jailg'or qishlog'ida tug'ilgan. O'rta asrlarning buyuk sarkardasi, Temuriylar imperiyasi asoschisi, musulmon olamining to'la yetakchisi, yeri 4.4mln km.kv ga yetishgan eng kuchli davlat quruvchisi, 35 yillik yurishlari chog'ida biror urushni yutqazmagan qo'shinboshi, ilm-fan, me'morchilik, san'at va adabiyot homiysi hisoblanadi. Temurbek shabon oyining yigirma beshinchisida, hijriy yetti yuz oltinchi yilda tug'ilgan.

Amir Temurning otasi Muhammad Tarag'ay bo'lib, u barlos qabilasining nufuzli beklaridan biri edi. Tarag'aybek o'z davrida hurmatga sazovor, dono va adolatli kishi bo'lib, o'g'li Temurni ham diniy ham harbiy asosda voyaga yetkazgan. Muhammad Tarag'ay beklilik darajasiga ega bo'lsa-da, katta siyosiy hokimiyatga intilmagan. Uning asosiy maqsadi o'g'li Temurni yaxshi tarbiya berib, unga harbiy va siyosiy bilimlarni o'rgatish bo'lgan. Shu bois Temur yoshlik yillaridanoq jang san'ati, diplomatika va davlat boshqaruv asoslarini o'rgangan.

Amir Temurning onasi Takina Xotun bo'lib, u barlos qabilasidan chiqqan nufuzli va hurmatli ayollaridan biri edi. Manbalarda u haqida ko'p ma'lumotlar saqlanmagan. Amir Temurning tarbiyasida onasining ham ta'siri katta bo'lgan. U Temurni bolaligidan halollik, adolat va sabr-toqat kabi fazilatlar asosida tarbiyalagan.

Siyosiy faoliyatining boshlanishi. Amir Temur O'rta Osiyo tarixidagi eng buyuk sarkardalardan biri bo'lib, u ko'plab harbiy yurishlar olib borgan va ulkan imperiya barpo etgan. Amir Temur Chig'atoy ulusining ichki nizolaridan foydalanib, Movarounnahrni o'ziga bo'ysundirgan. U dastlab Qashqadaryoda hokimiyatni qo'lga kiritdi, keyin esa Samarqand va Buxoro kabi muhim shaharlarni egalladi. Bu davrda u o'ziga sodiq qo'shinlar to'plab, davlat boshqaruvini mustahkamladi. Amir Temur o'z imperiyasining chegaralarini kengaytirish maqsadida turli yurishlar uyushtirdi:

Eron va Xuroson yurishlari (1370-1385) - Amir Temur Xurosonni egallab, Eronga yurish boshladi. U Jaloyiriylar va Mo'g'ul hukmdorlarini mag'lub etib, Forsni o'ziga bo'ysundirdi.

Oltin O'rda yurishlari (1389–1395) – Oltin O'rda xoni To'xtamish Amir Temurga qarshi chiqqanidan keyin Temur ikki marta shimolga yurish qilib, Oltin O'rdani tor-mor keltirdi. Uning poytaxti Saray-Berke va boshqa shaharlar vayron qilindi. Hindistonga yurish (1398) – Amir Temur Hindistonning boyliklaridan xabardor bo'lib, shimoliy Hindistonga yurish qildi va Dehlini egalladi. Bu yurish natijasida Temur Hindistondan ulkan o'lja bilan qaytdi.

Kichik Osiyo va Suriya yurishlari (1400–1402) – Amir Temur Mamluklar va Usmonlilarni tor-mor qilib, Halab, Damashq va Anqarani egalladi. 1402-yilda Anqara jangida Usmonli sultoni Boyazidni mag'lub etdi va uni asirga oldi.

Amir Temur oxirgi yirik yurishini Xitoyga qarshi rejalashtirdi, lekin bu yurish amalga oshmay qoldi. 1404-yilda u Samarqanddan jo'nab, Sirdaryo bo'yidagi O'tror shahriga yetib bordi. 1405-yilning fevralida kasallik tufayli O'trorda vafot etdi.

Amir Temurning harbiy yurishlari nafaqat O'rta Osiyoda, balki butun Yaqin Sharq, Janubiy Osiyo va Yevropada tarixiy o'zgarishlarga sabab bo'ldi. Uning imperiyasi uzoq davom etmagan bo'lsa ham, u qurgan tartib va madaniyat keyingi avlodlar uchun katta ta'sir ko'rsatdi.

#### Amir Temurning o'g'illari

1. Muhammad Jahongir Mirzo (1356-1376)
2. Umar Shayx Mirzo (1356-1394)
3. Mironshoh Mirzo (1366-1408)
4. Shohruh Mirzo

#### Amir Temurning qizlari

1. O'g'i Begi xonim (1359-1382)
2. Sulton Baxt begim (1362-1430)

Amir Temur o'limidan oldin farzandlariga yerlarni suyurg'ol qilib bo'lib bergan. Amir Temur ulkan saltanat tasarrufidagi o'lkalarni asosan to'rt qism (ulus)ga bo'lib, o'g'illari, nabiralari va xizmat ko'rsatgan amirlarga suyurg'ol tarzida in'om qiladi. Movarounnahrda tashqari o'z tasarrufidagi barcha viloyat va mamlakatlarni Amir Temur o'limidan biroz avval o'g'il va nabiralari orasida taqsimlaydi: Xuroson, Jurjon, Mazondaron va Seiston (markazi Hirot) Shohruxga, G'arbiy Eron, Ozarbayjon, Iroq va Armaniston (markazi Tabriz) Mironshohga, Fors, ya'ni Eronning janubiy qismi (markazi Sheroz) Umarshayxga, Afg'oniston va Shimoliy Hindiston (markazi G'azna, keyinchalik Balx) Pirmuhammadga suyurg'ol qilib berilgan. Uslar markaziy hukumatga itoat etsalar-da, ammo ular ma'lum mustaqillikka ega edilar. Uslar hukmdorlarining alohida davlat devonxonasi, qo'shini mavjud edi. Ularning markaziy hukumatga tobeligi xirojning bir qismini Samarqandga yuborib turish va oliy hukmdor harbiy yurishlarida o'z qo'shini bilan qatnashish yoki talab qilingan askarni yuborib turishdan iborat edi. U bu haqida "Temur tuzuklari" da shunday keltiradi:

Amr qildimki, to'ng'ich o'g'lim Muhammad Jahongir valiahdim bo'lsin. U viloyat hokimi bo'lib, o'n ikki ming otliq askarga ulufa olsin. Ikkinchi o'g'lim – Umarshayx o'n ming otliq askarga ulufa va bir viloyat olsin. Uchinchi o'g'lim – Mironshoh to'qqiz ming otliq askarga ulufa olib, bir viloyatni tasarruf qilsin. To'rtinchi o'g'lim – Shohrux yetti ming otliq askarga ulufa olib, bir viloyatga ega bo'lsin. Nabiralalar esa har qaysisi iste'dodiga yarasha uch mingdan yetti ming otliqqacha ulufa olib, bir viloyatga egalik qilsin. Va yana menga qavm-qarindoshligi bor kishilarga, o'z holiga qarab va qobiliyatiga yarasha birinchi darajali amir martabasidan tortib to yettinchi darajali amir martabasigacha bo'lgan amirlik va valiylik mansablari berilsin. Ularning har biri o'z martabasiga yarasha ish tutib, haddidan oshmasin. Bunga xilof ravishda ish tutganlar, javobgarlikka tortilsinlar. Bundan tashqari Amir Temur o'zining kitobida farzandlarining tarbiyasi, intizomi haqida ta'kidlab o'tgan:

Amr qildimki, agar o'g'illarimdan qaysi birovi saltanat martabasiga da'vogarlik qilib bosh ko'tarar ekan, uni urib-so'kib, o'ldirishga yoki muchasidan biron joyini kamaytirishga hech kim jur'at qilmasin, lekin uni ko'z tagida saqlasinlarki, toki o'z da'vosidan qaytsin va Tangri taoloning mulkida fasod chiqmasin. Agarda nabiralalar yoki qavm-qarindoshlar dushmanlik qilishsa, ularni maoshlaridan mahrum qilib darvish holatiga solsinlar. Saltanatim qo'rg'onlari

bo'lmish amirlar agar ish ustida nifoqqa borsalar, ulardan amirlik martabasi va yerlari tortib olinsin. Agar davlatga ziyon yetkizgudek ish qilgan bo'lsalar, ular boshqa amirlarga tobe' etilsinlar. Agar sipohiylik ishlarida yalqovlik qilgan bo'lsalar ishlaridan bo'shatilib, yozish-chizish bilan shug'ullanuvchilar orasidan ish berilsin. Agar shundan keyin ham xatolikka yo'l qo'ysalar, ikkinchi bor xizmatga olmasinlar. Saltanat saroyining ishonchli va e'tiborli kishilari bo'lmish vazirlar xususida shunday buyruq berdim. Agar bular o'z faoliyati davrida saltanatni yiqitish qasdidan davlatga xiyonat qilgan bo'lsalar ham, ularni o'ldirishda shoshilmasinlar, balki avval xabar beruvchilarning o'zlari kimligi, da'volarining rost-yolg'onligini mahak toshiga urib tekshirib ko'rsinlar. Chunki ko'p hollarda hasadchilar va g'iybatchilar yo ko'rolmay, yoki tamagirlik bilan yolg'on to'qib, chinday qilib yasab chiqaradilar va palid maqsadlariga yetishadilar.

Davlat ichida talay olchoq, yomon odamlar bordurki, davlat dushmanlarini yaxshilab, uning jon fidolarini turli makr-hiylalar bilan xarob qiladilar. Bularning maqsadlari saltanat qo'rg'oniga raxna solishdir. Chunonchi, amir Husayn mening vazirlarimdan birini aldab, davlatimning tayanchi, ikki qo'li bo'lmish amir Iki Temur va amir Jokuni menga qarshi qo'ymoqchi bo'lib gap chiqardi. Men uning xiyonatini farosatim-la sezib qoldim, shuning uchun ular xususida aytilgan hamma gaplarni eshitmaganga oldim. Chunonchi shunday voqea yuz bergandi. Yaqinlarimdan ba'zilari yolg'iz qolganimizda va odamlar oldida ulug' va e'tiborli amirlarimdan bo'lgan amir Abbosga hasad va dushmanlik qilib, uning haqida bo'lmag'ur gaplarni aytdilar. Yolg'on so'zlari shamoli bilan g'azabim o'tini alangalatdilar. Natijada gaplarini tekshirib ko'rmasdan g'azab ustida amir Abbosni o'limga buyurdim. Oxir-oqibatda Agar o'zlashtirib olgan mablag'i, o'ziga tegishli ulufa miqdoriga teng bo'lsa, mazkur mablag' unga sovg'a-in'om o'rnida berilsin. Agar o'zlashtirib olgan mablag'i maoshidan ikki barobar ortiq bo'lsa, ortig'i oladigan maoshi hisobidan ushlab qolinsin. Agar maoshidan uch barobar ko'p mablag' olgan bo'lsa, hammasi saltanat xazinasiga tortiq sifatida olinsin. Yana hukm qildimki, vazirlarni ortiqcha siylamasinlar, chunki alohida izzat-ikrom ko'rsatib, o'zlarini ularning nazarida obro'-e'tiborsiz qilib qo'yadilar. Bu esa saltanatga ziyon yetkazishi mumkin. G'arazgo'y, buzuqi va hasadgo'y odamlarning vazirlar haqidagi uydirmalarini eshitmasinlar, chunki bu tabaqadagi kishilarning dushmani ko'p bo'ladi, negaki, olam ahlining barchasi dunyotalabdirlar. Agar vazirlar bunday odamlarning ko'ngliga qarasarlar, davlatga xiyonat qilgan bo'lurlar, qaramasalar, ular vazirlarga dushmanlik qilurlar. Chig'atoyxonning bir vaziri bo'lgan ekan. G'arazgo'ylar uni xazinadan bir necha ming oltin o'g'irladi, deb xonga xat yozishibdi. Xatni xonga ko'rsatganlarida, u mazkur vazirni huzuriga chaqirtirib, unga itob qilib debdi: «Sen nazari past odam ekansan. Mendek podshohning vaziri bo'la turib, mamlakatimdan shunchalik oz narsa olibsan!» Dono vazir xonning bu qadar katta ehsonidan mamnun bo'libdi va bor davlatining barchasini keltirib xonga peshkash qilibdi. Bu bilan xon oldida o'z martabasini va obro'-e'tiborini saqlab qolibdi. Itob – qahr-g'azab bilularning amir Abbos haqiga xiyonat qilganliklarini angladim va qilgan ishimdan o'kinib, juda pushaymon bo'ldim. Mamlakat xazinachilari bo'lmish moliya vazirlari, moliya ishlarida xiyonat qilib, boylikning bir qismini o'zlashtirib olgan bo'lsalar, tekshirib ko'rilsin. Yana hukm qildimki, qaysi bir sipohiy haddidan oshib, qo'l ostidagi kishiga zulm o'tkazar ekan, uni tutib, mazlum qo'lga topshirsinlar, toki dodiga o'shalar yetkazsinlar. Agar kadxudolar va kalontarlar kichikroq darajadagi odamga zulm qilgan bo'lsalar, qilgan zulmiga yarasha, har kimning ko'tarishicha jarima solsinlar. Agar dorug'alar va hokimlar xalqqa jabr-zulm qilib, ularni xarob qilgan bo'lsalar, qilgan ishlariga loyiq jazo berilsin. Agar biror kimsaning gunohi isbotlangandan so'ng undan jarima olsalar, boshqa yana darra bilan urmasinlar. Agar darra urish bilan jazolasalar, undan jarima olmasinlar. O'g'rilar xususida buyurdimki, ular qayerda bo'lmasin, kim tutib olsa Yoso bo'yicha jazolansin. Kimki birovning molini zo'rlik bilan tortib olgan bo'lsa, mazlumning molini zolimdan qaytarib olib, egasiga topshirsinlar. Agar kimda-kim tish sindirsa, ko'zni ko'r qilsa, quloq va burun kessa, sharob ichsa, zino ishlar qilsa, devondagi shariat qozisi yoki ahdos qozisiga olib borib topshirsinlar. Shariatga oid ishlarni hal

etishda islom qozisi hukm chiqarsin. Urf-odat ishlarini esa ahdos qozisi taftish qilib, so'ng mening arzimiga yetkazsin.

Amir Temur davlat Amir Temur o'z farzandlari va nabiralarning tarbiyasiga katta e'tibor bergan. U davlat boshqaruvi va harbiy san'atni yaxshi tushungan vorislar tayyorlashga harakat qilgan. Shuning uchun ham uning farzandlari yoshligidan ilm, harbiy ish va davlat boshqaruvi bo'yicha maxsus tarbiya olgan.

Amir Temur farzandlari tarbiyasining asosiy xususiyatlari:

Farzandlari va nabiralari yoshligidan harbiy san'at, jang strategiyalari va davlat boshqaruvi bo'yicha ta'lim olishgan. Ular Temurning yurishlarida ishtirok etib, amaliy tajriba orttirgan. Masalan, Shohruh yoshligidan otasining safarlarida bo'lgan va keyinchalik Movarounnahrni boshqargan.

Temur ilm-fan va san'at ahliga hurmat bilan qaragan, shuning uchun farzandlari ham madaniyat va ilmdan bexabar bo'lmagan. Shohruh va Mirzo Ulug'bek ilm-fanni rivojlantirishga katta hissa qo'shgan. Ulug'bek ayniqsa astronomiya va matematika sohasida buyuk olim sifatida tanilgan.

Temur farzandlariga adolatli bo'lish, xalqning manfaatlarini himoya qilish, tartib-intizomni saqlash kabi tamoyillarni singdirgan. U o'z merosxo'rlarini hududiy hokimliklarga tayinlab, ularni mustaqil boshqaruvchi sifatida tarbiyalagan. Masalan, Shohruh Xurosonni, Umarshayx Farg'onani boshqargan.

Garchi Amir Temur farzandlariga mustahkam ta'lim bergan bo'lsa-da, uning vafotidan keyin vorislar orasida taxt uchun kurash avj oldi. Bu ziddiyatlar natijasida imperiya zaiflashdi va tez orada bo'linib ketdi.

Xulosa. Amir Temur farzandlarini yetuk davlat arbobi, harbiy sarkarda va ilmi shaxs sifatida tarbiyalashga harakat qilgan. Ular bilimli va qobiliyatli bo'lsalar ham, ichki nizolar tufayli imperiyani saqlab qolish qiyin bo'ldi. Shunday bo'lsa ham, Temurning tarbiyaviy yondashuvi keyingi asrlarga katta ta'sir ko'rsatdi, ayniqsa Mirzo Ulug'bek ilm-fan sohasida buyuk meros qoldirdi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ahmedov B. "Tarixdan saboqlar". T., "Fan". 1994.
2. Bo'riyev O. "Temuriylar davri yozma manbalarida Markaziy Osiyo". T. Sharq 1997.
3. Ibn Arabshoh "Amir Temur tarixi". 2 - kitob. T., "Mehnat". 1992.
4. Ivanin M. "Ikki buyuk sarkarda Chingizxon va Amir Temur". T., "Sharq". 1994.
5. Klavixov R. "Buyuk Amir Temur tarixi". T., "Fan". 2004.
6. Muhammadjonov A. "Temur va Temuriylar saltanati". T., "Qomuslar bosh tahririyati". 1994.
7. Nizomiddin Shomiy "Zafarnoma". T., "Fan". 1996.
8. To'xtayev I. "Amir Temur va Temuriylarni pul islohoti". T., "Sharq". 2006.
9. "Temur tuzuklari" T., "Fan". 2005.